**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
V. I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI,
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

JUMAYEV DAVRON ILXOMOVICH

KOMPAKTLI TIPIDAGI FAZOLAR VA ULARNING GIPERFAZOLARI

01.01.04 – Geometriya va topologiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UDK: 515.12

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of the abstract of doctor of philosophy (PhD) dissertation on physical-mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
V. I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI,
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

JUMAYEV DAVRON ILXOMOVICH

KOMPAKTLI TIPIDAGI FAZOLAR VA ULARNING GIPERFAZOLARI

01.01.04 – Geometriya va topologiya

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/FM399 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi V. I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti hamda Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-fizmat.nuu.uz)da va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Zaitov Adilbek Ataxanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Beshimov Ruzinazar Bebutovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
	Eshqobilova Dilrabo Turaxonovna fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertasiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "03" 01 soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99878) 227-12-24, faks: (+99878) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertasiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (179 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99878) 246-02-24).

Dissertasiya avtoreferati 2024 yil "20" 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil "20" 12 dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).

A. S. Sadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m. f. d., akademik

R. M. Jo'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m. f. f. d. (PhD)

R. B. Beshimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi
f.-m. f. d., dotsent

KIRISH
(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi fundamental tadqiqotlarning, shu jumladan, matematikaning yangi sohalarini rivojlantirish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq qilishni talab etmoqda. Umumiy topologiyadagi amaliyot talablaridan kelib chiqadigan ko'pgina masalalar differensial topologiya, algebraik topologiya, matematik analiz, matematik modellashtirish va optimal boshqarish masalalariga keltirilmoqda. Keyingi paytlardagi dunyoda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, shuningdek topologik fazolarni metrikalashtirish masalasi haligacha jozibali muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Kompaktli tipidagi fazolar va ularning giperfazolariga oid erishilgan natijalar ham nazariy, ham tatbiqiy jihatdan ahamiyatli va bu nazariya zamonaviy matematikaning dolzarb masalalarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon tajribasida zamonaviy matematikada fundamental tadqiqotlarning yangi yo'nalishlarini, xususan, topologik fazolar nazariyasini rivojlantirish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Iqtisodiyot va sanoat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan amaliy va sof matematikaning ko'plab muammolari kompaktli Xausdorf fazolari sinfiga qaraganda kengroq topologik fazolar muammolariga, xususan, superparakompakt va Π-to'la fazolarga keltiriladi. Bunday holda qaraladigan tanlanmalarga giperfazoning elementlari mos keladi hamda uning baza atroflari sifatida holatlar to'plami qaraladi. Shuning uchun superparakompakt va Π-to'la fazolar va ularning giperfazolari bo'yicha olingan natijalar ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy matematikaning eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda aniq va tabiiy fanlar sohasidagi hozirgi tendensiyalarga, xususan, umumiy topologiya, funktorlar nazariyasida mavjud muammolarni o'rganish va olingan natijalarni tadbiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari "Funksional analiz, geometriya va topologiya" fanlarining ustuvor yo'nalishlarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar ishlari ko'lamini kengaytirish, ularning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish topologiya fanining faoliyat yo'nalishlari va muhim vazifalari sifatida belgilab berilgan[1]. Qaror ijrosini ta'minlashda kompaktli tipidagi fazolar (superparakompaktlik, Π-to'lalik va boshqalar), funktorlar nazariyasi, xususan, topologik fazolarning giperfazolari bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019-2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 292-sonli qarori.

malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarorlariga hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarga mos keladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Superparakompaktli va Π -to‘la fazolar bo‘yicha tizimli tadqiqotlarning boshlanishi B. A. Pasinkov, V. I. Ponomarevlarning ishlariga borib taqaladi. Bundan tashqari D. Buhagiar va T. Miwa Tixonov fazosining superparakompaktli va Π-to‘laligi alomatlarini oldi, bu esa tadqiqot uchun yana navbatdagi afzalliklarni berdi. Superparakompaktli va Π -to‘la fazolar va ularning giperfazolarini o‘rganish hozirgi vaqtda mantiqiy asosga ega. Ushbu ilmiy yo‘nalishni rivojlantirish uchun P. S. Aleksandrov, A. V. Arxangelskiy, V. I. Ponomarev, D. K. Musayev, Sh. A. Ayupov, T. F. Jurayev, V. N. Basmanov, R. B. Beshimov, A. I. Ivanov, V. V. Fedorchuk, V. Gutev, T. H. Nguyen, V. Valov, A. A. Zaitov kabi olimlar va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Undan tashqari, topologik fazolar nazariyasi o‘zining jadal rivojlanishini davom ettirmoqda. Bu hodisaga mamlakatimiz olimlari ham o‘zlarining faol hissalarini qo‘shishmoqda. Funktorlar nazariyasi bo‘yicha xorijiy hamda mamlakatimiz tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari vujudga kelmoqda. A. I. Ivanov va O. V.Fomkina, A. V. Ivanov, A. V. Arhangel‘skii va Choban M. M., B. A. Pasynkov va T. H. V. Nguyen, V. Valov, A A. Zaitov, S. Iliadis va Yu V. Sadovnichy, K. Begjanova va boshqalarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, topologik fazolarni metrikalashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Topologik fazolar sinflari orasida juda ko‘p ajoyib xususiyatlarga ega bo‘lgan kompaktli Xausdorf fazolar sinfi eng muhim sinflardan biri hisoblanadi. Kuchli parakompaktli Xausdorf fazolar sinfi undanda kengroq sinf bo‘lish bilan birga ajoyib (masalan, o‘lchov) xossalarga ega bo‘lgan, barcha regulyar final-kompakt fazolarni va xususan, barcha separabel metrik fazolarni o‘z ichiga oladigan sinf hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, kuchli parakompaktli fazolar sinfi o‘ziga nisbatan kengroq, umumiy topologiyadagi asosiy sinf – parakompaktli Xausdorf fazolari sinfiga nisbatan boyroq xossalarga ega. Bir qaraganda kompaktli va parakompaktli Xausdorf fazolar sinflari oralig‘ida joylashgan kompaktli tipidagi fazolarning barcha xossalar allaqachon o‘rganilgan, deb o‘ylash mumkin. B. A. Pasinkov kompaktli va parakompaktli Xausdorf fazolar sinflari oralig‘ida joylashgan superparakompaktli Xausdorf fazolar sinfini ajratishga muvaffaq bo‘ldi. Bu yo‘nalishda quyidagi ishlarni ta’kidlash maqsadga muvofiq bo‘ladi: A. V. Arxangelskiy, D. K. Musayev va B. A. Pasinkov, D. K. Musayev, V. I. Ponomarev, V. I. Ponomarev va L. B. Shapiro, V. V. Fedorchuk, A. V. Arxangelskiy va van Mill J., A. A. Borubayev va A. A. Chekeev, D. Buhagiar va B. A. Pasinkov, V. Gutev, B. A. Pasinkov, B. A. Pasinkov va T.Karavayeva.

Funktorlar nazariyasi o‘tgan asrning 80 yillarida rivojlana boshlagan. Ye. V. Shepin bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun fundamental asos yaratdi. V. V. Fedorchuk funktorlar nazariyasi mustaqil mavjud bo‘la olishi mumkin ekanligini amalda asoslab berdi. B. N. Basmanov funktorlar nazariyasining keyingi rivojlanishiga muhim turtki beruvchi g‘oyalarni ilgari surdi. T. F. Jurayev tomonidan funktorlar nazariyasining yutuqlari qo‘llanilib, ushbu nazariya bo‘yicha tadqiqotning yaxlit sikli yakunladi. Rivojlanishning keyingi bosqichi funktorni topologik fazolarning torroq sinfidan topologik fazolarning kengroq sinfiga davom ettirish (kengaytirish) bilan bog‘liq. A. Ch. Chigogidze normal funktorlarni kompaktli Xausdorf fazolari kategoriyasidan Tixonov fazolari kategoriyasiga davom ettirish usullaridan birini taklif qildi. Keyinchalik (nafaqat normal) funktorlarni kengaytirish uchun boshqa konstruksiyalar paydo bo‘ldi. Yu. V. Sadovnichiy ishorasi o‘zgaruvchi τ -silliq va Radon o‘lchovlari funktorlarini kompaktli Xausdorf fazolar kategoriyasidan chegaralangan metrik fazolar va ravnomer fazolar kategoriyalariga davom ettirishning noyob usullarini qo‘lladi. V. V. Popov yopiq qism to‘plamlar fazosi (ya’ni giperfazo)ni metrikalashtirish bo‘yicha bir qator natijalar oldi. Bu yo‘nalishda yetarlicha bilimlar bazasi mavjud bo‘lsada, superparakompaktli va Π -to‘la fazolarning giperfazosining kompaktli tipidagi xossalarini, shuningdek, bunday fazolarni uzluksiz akslantirishlarini o‘rganish amalga oshirilmagan edi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura qurilish institutining Matematika va tabiiy fanlar kafedrasining bosh ilmiy yo‘nalishi “Nochiziqli analiz, fizika va mexanikaning zamonaviy muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kompaktli Xausdorf fazolarning to‘rli vazni, vazni, psevdovazni, shuningdek, (O - C)-kompakt sust Π -to‘la fazoning har qanday yopiq to‘plamdagi xarakteri, psevdoxarakteri orasidagi kompaktli Xausdorf fazolarida o‘rinli bo‘lgan tengliklarni, superparakompaktli va Π -to‘la fazolarning giperfazo-larini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

superparakompakt fazoning metrikalashtirish alomatini olish;

Tixonov fazosi uchun uning Stoun-Chex kengaytmasining giperfazosi berilgan fazoning kompakt qismto‘plamlari giperfazosining mukammal kengaytmasi ekanligini o‘rnatish;

(dastlabki) Tixonov fazosi uchun uning kompakt qismto‘plamlari giperfazosi faqat va faqat dastlabki fazo Π -to‘la bo‘lgandagina Π -to‘la bo‘lishini ko‘rsatish;

Tixonov fazolarining (dastlabki) uzluksiz akslantirishi uchun giperfazo funktori tomonidan indutsirlangan akslantirish faqat va faqat dastlabki akslantirish Π -to‘la bo‘lsagina Π -to‘la bo‘lishini o‘rnatish;

Tadqiqotning obyekti superparakompaktli va Π -to‘la fazolar, ularning giper-fazolari va uzluksiz akslantirishlari.

Tadqiqotning predmeti umumiy topologiya, funktorlar nazariyasi.

Tadqiqotning usullari Tadqiqot ishida umumiy topologiya, funktorlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

superparakompaktli p -fazolarning absolyuti bo‘ladigan topologik fazolar sinfi sanoqli σ -cheklikomponentali π -bazasi sanoqli cheklikomponentali qoplamalarining sanoqli sistemasiga yoyiladigan fazolardan iborat ekanligi aniqlangan;

Tixonov fazosi uchun uning Stoun-Chex kengaytmasining giperfazosi berilgan fazoning kompakt qismto‘plamlari giperfazosining mukammal kengaytmasi ekanligi, ya’ni berilgan ikkita ochiq to‘plamlar birlashmasining eng katta ochiq to‘plami shu to‘plamlarnining eng katta ochiq to‘plamlari birlashmasiga teng ekanligi o‘rnatilgan;

(Dastlabki) Tixonov fazosi uchun uning kompakt qismto‘plamlari giperfazosi faqat va faqat dastlabki fazo Π -to‘la bo‘lgandagina Π -to‘la bo‘lishi, ya’ni giperfazoning narostidan olingan ixtiyoriy nuqtasini giperfazoning maksimal kompakt kengaytmasida ajratib oladigan cheklikomponentali qoplama mavjud bo‘lishi ko‘rsatilgan;

Tixonov fazolarining (dastlabki) uzluksiz akslantirishi uchun giperfazo funktori tomonidan indutsirlangan akslantirish faqat va faqat dastlabki akslantirish Π -to‘la bo‘lsagina Π -to‘la bo‘lishi, ya’ni dastlabki va indutsirlangan akslantirishlarning obrazlari Π -to‘la fazo bo‘lishi o‘zaro teng kuchli ekanligi o‘rnatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kompaktli Xausdorf fazolarning to‘rli vazni, vazni, psevdovazni, shuningdek, (O-C)-kompakt sust Π-to‘la fazoning har qanday yopiq to‘plamdagi xarakteri, psevdoxarakteri orasidagi kompaktli Xausdorf fazolarida o‘rinli bo‘lgan tengliklar o‘rnatildi, shuningdek superparakompakt fazoning metrikalashtirish alomati olingan;

Tixonov fazolarining (dastlabki) uzluksiz akslantirishi uchun giperfazo funktori tomonidan indutsirlangan akslantirish faqat va faqat dastlabki akslantirish Π -to‘la bo‘lsagina Π -to‘la bo‘lishi o‘rnatilgan;

Xususan, Tixonov fazolarining (dastlabki) uzluksiz akslantirishi uchun giperfazo funktori tomonidan indutsirlangan akslantirish faqat va faqat dastlabki akslantirish superparakompaktli bo‘lsagina superparakompaktli bo‘lishi o‘rnatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi natijalarni aniqlashda umumiy topologiya, funktorlar nazariyasi usullari va to‘plamlar nazariyasi usullari qat’iy matematik mulohazalar asosida qo‘llanilgani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalardan kompaktli tipidagi fazolar, jumladan, superparakompaktli va Π -to‘la fazolar nazariyasi va ularning giperfazolari bo‘yicha keyingi tadqiqotlarda foydalanish imkoniyati bilan baholanadi.

Dissertatsiya ishi natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarni superparakompakt va Π -to‘la fazolar va ularning giperfazolarini kombinatorika va aktuar matematika masalalarida qo‘llash imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompaktli tipidagi fazolarning kardinal invariantlari, superparakompakt va Π -to‘la fazolar, ularning giperfazolari va uzluksiz akslantirishlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Kompaktli Xausdorf fazolarning to‘rli vazni, vazni, psevdovazni, shuningdek, (O-C)-kompakt sust Π-to‘la fazoning har qanday yopiq to‘plamdagi xarakteri, psevdoxarakteri orasidagi kompaktli Xausdorf fazolarida o‘rinli bo‘lgan tengliklar № OT-F4-42 “Yarim additiv τ-silliq va radon funksionallar fazolarining kardinal va topologik xossalari” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasida yarim additiv τ -silliq fazolarining geometrik va topologik xossalariga oid kategoriyaviy, funktorial hamda kardinal invariantlarni saqlash masalalarini yechishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti tomonidan 2024-yil 10-sentyabrda berilgan 04-11-6801 raqamli ma’lumotnoma). Dissertatsiya natijalari yarim additiv τ-silliq funksionallar funktorining topologik, kategorik, geometrik va kardinal xossalari bo‘yicha izlanish olib borish imkonini bergan;

- J. Balasagin nomidagi Qirg‘iziston Milliy universiteti “Algebra, geometriya, topologiya va Oliy matematikani o‘qitish” kafedrasi “Tekis topologiya va uning funksional tahlil va topologik algebrada qo‘llanilishi” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida loyihaning nazariy asoslanishi sifatida foydalanilgan. (J. Balasagin nomidagi Qirg‘iziston Milliy universiteti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori N.Ishekeev tomonidan 2024-yil 11-sentyabrda imzolangan 01/1126-sonli ma’lumotnoma). Dissertatsiya natijalari grant mualliflari tomonidan tekis fazolar kategoriyasida ta’sir etadigan kovariant funktorlarning umumiy topologiya va kardinal invariantlar muammolarini va ularning tekis uzluksiz akslantirishlarini o‘rganishda qo‘llanilgan. Giperfazo funktorining kompakt Hausdorf fazolari va ularning uzluksiz akslantirishlari kategoriyasidan Π -to‘la fazolar va ularning uzluksiz Π -to‘la akslantirishlari kategoriyaga ko‘tarilish umumiy topologiya va tekis fazolar nazariyasini o‘rganishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekiston milliy universiteti Geometriya va topologiya kafedrasining “Geometriya va topologiyaning zamonaviy muammolari” ilmiy seminarida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining “Operatorlar algebralari va ularning tatbiqlari” ilmiy seminarida, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Matematika va tabiiy fanlar kafedrasi ilmiy seminarida, 9 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respub-likasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qism, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissetatsiyaning hajmi 72 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga muvofiq dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, kirish qismida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar haqida umumiy ma’lumot berilgan, muammoni o‘rganish darajasi va ilmiy yo‘nalish bilan bog‘liqligi aniqlangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, shuningdek tadqiqot obyekti va mavzusi, ilmiy yangilik va amaliy tadqiqot natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, uning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, nashr etilgan ishlar soni qayd etilgan, olingan natijalarning aprobatsiyasi va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **«Kompaktli tipidagi fazolar. Kardinal invariantlar»** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat bo‘lib, unda dissertatsiya natijalarini yoritishda kerak bo‘ladigan asosiy tushuncha va faktlar keltirib o‘tilgan.

X biror to‘plam, ω uning to‘plamostilarining qandaydir sistemasi bo‘lsin. Agar ω sistemaning $x \in X$ nuqtani o‘z ichiga oladigan elementlari soni ko‘pi bilan n natural sondan oshmasa, u holda $Kp(x,\omega) \le n$ tengsizlik yoziladi. Barcha $x \in X$ nuqtalarda $Kp(x,\omega) \le n$ tengsizlik bajarilgan holda $Kp\,\omega \le n$ tengsizlik yoziladi.

X to‘plamning chekli sondagi M_0, …, M_s qism to‘plamlari har bir $i = 1,...,s$ uchun $M_{i-1} \cap M_i \ne \varnothing$ munosabatni qanotalantirsa, M_0, …, M_s ketma-ketlik zanjir deyiladi. Agar har qanday M, $M' \subset X$ to‘plamlarni olganda ham ω sistemada shunday zanjir mavjud bo‘lib, bu zanjirning birinchi elementi M bilan, oxirgi elementi esa M' bilan ustma-ust tushsa, u holda ω zanjirlangan sistema deyiladi. ω sistemaning maksimal zanjirlangan qismsistemalariga ω ning zanjirlanganlik komponentlari (yoki komponentalari) deyiladi. Agar X fazoning ochiq qoplamasining barcha zanjirlangan komponentalari chekli bo‘lsa, u holda bu qoplama chekli komponentali qoplama deyiladi.

Agar ω sistemaning xar bir elementi ω ning sanoqlidan ko‘p bo‘lmagan elementlari bilan kesishsa, u holda ω yulduzli-chekli sistema deyiladi.

X fazo, uning A qismfazosi, A qismfazoning λ (ochiq) qoplamasi va $x \in X \setminus A$ nuqta uchun $x \notin \bigcup[\lambda]_X$ bo‘lsa, u holda A qismfazoning λ qoplamasi x nuqtani X fazodan ajratib oladi deyiladi.

Endi dissertatsiya ishining asosiy tadqiqot obyektlarining ta’riflarini keltiramiz.

Agar fazoning ixtiyoriy ochiq qoplamasiga chekli komponentali qoplama ichki chizish mumkin bo‘lsa, u holda bu fazo superparakompaktli fazo deyiladi.

Har bir komponentasining yig‘indisi (ya’ni, jismi) kompakt bo‘ladigan X fazo K-komponentali fazo deyiladi.

Agar X Tixonov fazosining ixtiyoriy $x \in \beta X \setminus X$ nuqtasini βX dan ajratib oladigan cheklikomponentali qoplamasi mavjud bo‘lsa, u holda X fazo Π-to‘la fazo deyiladi.

Dissertatsiyaning “**Kompaktli tipidagi fazolarning kardinal invariantlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida sust Π-to‘la va superparakompaktli fazolarning kardinal invariantlari, shuningdek, lokal Xausdorf kompaktli va lokal bog‘lamli K-komponentli fazolarni metrikalash masalalari tdqiq etilgan. Olingan natijalar, xususan, (sust) Π-to‘la va superparakompaktli fazolar va gruppalarni metrikalashti-rishda ishlatilgan.

Keyinchalik superparakompaktli fazolarning absolyutlari aniqlangan.

Ma’lumki, har qanday lokal kompaktli X fazo uchun, xususan, har qanday kompaktli Xausdorf X fazo va har qanday nuqta $x \in X$ uchun quyidagi tengliklar o‘rinli bo‘ladi:

(#) $$nw(X) = w(X) \qquad \text{va} \qquad \psi(x, X) = \chi(x, X).$$

Tabiiy ravishda tug‘iladigan quyidagi masala B. A. Pasinkov tomonidan qo‘yilgan: har qanday superparakompaktli X fazo uchun (#) tengliklar o‘rinli bo‘ladimi?

Quyidagi misol B. A. Pasinkov tomonidan bu kabi quyilgan masalaning javob salbiy yechilishini ko‘rsatadi. Superparakompaktli fazo bo‘ladigan, lekin lokal kompaktli Xausdorf fazosi bo‘lmaydigan $X = \mathbb{N} \bigcup \{x\}$ fazoni qaraylik (bu yerda $x \in \beta\mathbb{N} \setminus \mathbb{N}$).

2.2.1-tasdiq. X fazo va x nuqta uchun quyidagilar o‘rinli:

1) $nw(X) < w(X)$ (X fazoning to‘rli vazni uning vaznidan kichik);

2) $\psi(x, X) < \chi(x, X)$ (X fazoning nuqtadagi psevdoxarakteri fazoning shu nuqtadagi xarakterdan kichik);

3) $\pi w(X) < w(X)$ (X fazoning π-vazni uning vaznidan kichik);

4) $\pi\chi(X) < \chi(X)$ (X fazoning π-xarakteri uning xarakteridan kichik).

Quyidagi teorema paragrafning asosiy yutuqlaridan biri bo‘lib, B. A. Pasinkovning savoliga ijobiy javob beradi.

2.1.1-teorema. Har qanday:
a) Lokal bog‘lamli Xausdorf K-komponentali X fazo va ixiyoriy $x \in X$ nuqta uchun quyidagi tengliklar o‘rinli:

$$(*) \qquad 1)\ nw(X) = w(X); \qquad 2)\ wd(X) = d(X); \qquad 3)\ \psi(x, X) = \chi(x, X).$$

b) (O-C)- kompaktli sust Π-to‘la X fazo va ixiyoriy yopiq $A \subset X$ qisto‘plam uchun quyidagi tengliklar o‘rinli:

$$(**) \qquad 1)\ nw(X) = w(X) = \rho w(X); \qquad 2)\ \psi(A, X) = \chi(A, X).$$

v) (O-C)-chekli Π-to‘la X fazo uchun tenglik o‘rinli (**).

Bu yerda $\rho w(X)$ oqali X fazoning psevdovazni, $d(X)$ oqali X fazoning zichligi, $wd(X)$ orqali X fazoning sust zichligi, $\chi(A, X)$ orqali A to‘plamning X fazodagi xarakteri, $\psi(A, X)$ orqali A to‘plamning X fazodagi psevdoxarakteri belgilangan.

Quyidagi natijada superparakompaktli Xausdorf fazosi (qisqacha superparakompakt) ning metrikalanishining alomati olingan.

2.1.2-teorema. X superparakompakt fazo faqat va faqat u σ-cheklikomponentali bazaga ega bo‘lsagina metrikalashadi.

V. I. Ponomaryov qoplamalar va akslantirishlar yordamida sanoqli bazaga ega metrik fazolar, xususan, metrik kompaktlarning absolyutlarini topgan.

Superparakompaktli p-fazolarning absolyutlari bo‘ladigan fazolari sinfini aniqlaymiz. Quyidagi lemma superparakompaktli fazolarning kuchli parakompaktli fazolariga nisbatan ustun tomonlarini ko‘rsatadi.

2.2.2-lemma. Agar X superparakompaktli p-fazo bo‘lsa, u holda X fazo o‘zining har qanday ochiq ω qoplamasi uchun Y superparakompaktli metrik fazoga ω-mukammal akslantirishga ega bo‘ladi.

Quyidagi natija V. I. Ponomaryovning natijasiga o‘xshash bo‘lib, metrik fazolar sinfi o‘rniga superparakompaktli p-fazolar sinfi qaralgan.

2.2.1-teorema. X fazo faqat va faqat σ-cheklikomponentali π-bazaga ega bo‘lgan superparakompaktli p-fazo bo‘lsagina, superparakompakt metrik fazoga birqiymatli mukammal keltirilmaydigan akslantirishga ega bo‘ladi.

Quyidagi natija muhimdir.

2.2.2-teorema. X fazo faqat va faqat X superfinalkompaktli fazo sanoqlita cheklikomponetali qoplamalariga yoyiladigan sanoqli σ-cheklikomponentali π-bazaga ega bo‘lsagina superparakompaktli p-fazoga o‘tkazuvchi birqiymatli mukammal keltirilmaydigan akslantirishga ega bo‘ladi.

2.2.2-teoremadan bobning quyidagi asosiy natijasi kelib chiqadi.

2.2.4-natija. Sanoqli bazaga ega superparakompaktli p-fazoning absolyuti faqat va faqat sanoqli cheklikomponentali qoplamalar sistemasiga yoyiladigan superfinal sanoqli σ -cheklikomponentali π -bazaga ega p -fazolargina bo‘la oladi.

Agar:

1) $\dot{X}$ fazo X fazoning mukammal keltirilmaydigan akslantirishdagi proobrazi bo‘lsa;
2) X fazoning barcha mukammal keltirilmaydigan akslantirishdagi proobrazlari $\dot{X}$ ga gomeomorf

bo‘lsa, u holda $\dot{X}$ fazo X regulyar fazoning absolyuti deyiladi.

$\dot{X}$ va $\dot{Y}$ absolyutlari gomeomorf, yoki bu fazolardan birini ikkinchisiga o‘tkazuvchi mukammal keltirilmaydigan (umuman olganda, ko‘p qiymatli) akslantirish mavjud bo‘lsa, X va Y fazolar soabsolyut fazolar deyiladi.

Funktorlarning turli topologik fazolar va ularning uzluksiz akslantirishlarga ta’siri kovariant funktorlar nazariyasining asosiy muammolaridan biri ekanligi yaxshi ma’lum.

“**Π-to‘la va superparakompakt fazolar va akslantirishlarning giperfazolari**” deb nomlangan uchinchi bobda (berilgan fazoning giperfazosini qurish) funktori exp ning Π-to‘la va superparakompaktli fazolarga ta’siri tadqiq etilgan hamda Π-to‘la va superparakompaktli akslantirishlar uchun X Tixonov fazoning kompakt qismto‘plamlaridan tuzilgan $\exp_\beta X$ fazo faqat va faqat X fazo Π-to‘la (superparakompaktli) fazo bo‘lgandagina Π -to‘la (superparakompaktli) fazo bo‘lishi isbotlangan. Bundan tashqari, Tixonov akslantirishining mukammal kompaktli kungaytmasi tushunchasi kiritildi va indutsirlangan $\exp_\beta f : \exp_\beta X \to \exp_\beta Y$ akslantirish faqat va faqat f akslantirish Π -to‘la (superparakompaktli) akslantirish bo‘lgandagina Π -to‘la (superparakompaktli) akslantirish bo‘lishi ko‘rsatildi.

$\exp X$ orqali X fazoning barcha bo‘sh bo‘lmagan yopiq qism to‘plamlari belgilanadi. X dagi $U_1, \ldots, U_n$ ochiq to‘plamlar uchun

$$O\langle U_1, \ldots, U_n\rangle = \left\{F \in \exp X : F \subset \bigcup_{1\le i\le n} U_n, \quad F \cap U_1 \neq \varnothing, \ldots, F \cap U_n \neq \varnothing\right\}$$

ko‘rinishdagi to‘plamlar oilasi $\exp X$ da qandaydir topologiyaning bazasini tashkil etadi. Bu topologiya Viyetoris topologiyasi deyiladi. Viyetoris topologiyasi bilan ta’minlangan $\exp X$ fazo X fazoning giperfazosi deyiladi. X kompakt Xausdorf fazosi uchun uning $\exp X$ giperfazosi ham kompakt Xausdorf fazosi bo‘ladi.

Kompakt fazolarning $f : X \to Y$ uzluksiz akslantirishini qaraylik. $F \in \exp X$ nuqtada

$$(\exp f)(F) = f(F).$$

kabi o‘rnatiladigan tenglik $\exp f : \exp X \to \exp Y$ akslantirishni aniqlaydi. f uzluksiz akslantirish uchun $\exp f$ ham uzluksiz bo‘ladi. Agar $f : X \to Y$ epimorfizm bo‘lsa, u holda $\exp f$ ham epimorfizm bo‘lishini eslatib o‘tamiz.

X Tixonov fazosi uchun

$$\exp_\beta X=\{F\in\exp\beta X : F\subset X\}.$$

to‘plamni aniqlaymiz. $\exp_\beta X\subset\exp X$ ekanligi ravshan. $\exp_\beta X$ to‘plamni $\exp X$ fazoning qismfazosi deb olamiz. X Tixonov fazosi uchun $\exp_\beta X$ fazo ham indutsirlangan topologiyaga nisbatan Tixonov fazosi bo‘ladi.

Tixonov fazolarining uzluksiz $f:X\to Y$ akslantirishi uchun

$$\exp_\beta f=\left(\exp\beta f\right)\Big|_{\exp_\beta X},$$

deb olamiz, bu yerda $\beta f:\beta X\to\beta Y$ orqali f ning (yagona) Stoun-Chex kompaktifikatsiyasi belgilangan.

Ma’lumki, X tixonov fazosi uchun $\exp_\beta X$ to‘plam $\exp\beta X$ da zich, ya’ni $\exp\beta X$ fazo $\exp_\beta X$ ning kompaktifikatsiyasi bo‘ladi. Biz $\exp\beta X$ fazo $\exp_\beta X$ ning mukammal kompaktifikatsiyasi ekanligini da’vo qilamiz. Buni isbotlash uchun quyidagi lemmadan foydalanamiz.

3.1.2-Lemma. γX fazo X fazoning kompakt kengaytmasi bo‘lib, V va W to‘plamlar γX da kesishmaydigan ochiq to‘plamlar bo‘lsin. $V^X=X\bigcap V$ va $W^X=X\bigcap W$ bo‘lsin. U holda quyidagi tenglik o‘rinli:

$$\left[X\setminus V^X\right]_{\gamma X}\bigcap\left[X\setminus W^X\right]_{\gamma X}=\left[X\setminus\left(V^X\bigcup W^X\right)\right]_{\gamma X}.$$

Quyidagi natija dissertatsiyaning muhim yutuqlaridan biridir.

3.1.1-teorema. X tixonov fazosi uchun $\exp\beta X$ fazo $\exp_\beta X$ fazoning mukammal kompaktifikatsiyasi bo‘ladi.

Superparakompaktli fazolarni tadqiq etishda quyidagi alomat muhim hisoblanadi.

3.2.1-teorema. (Buhagiar D., Miwa T.). X Tixonov fazosi, bX uning mukammal kompakt kengaytmasi bo‘lsin. X superparakompaktli fazo bo‘lishi uchun $bX\setminus X$ da yotuvchi bX da yopiq har qanday F to‘plamni olganda ham, X ning shunday chekli komponentali λ qoplamasi topilib, bX dan F ni ajratishi (ya’ni, $F\bigcap\left(\bigcup[\lambda]_{bX}\right)=\varnothing$ bo‘lishi) zarur va yetarli.

Quyidagi tasdiq asosiy natijani isbotlashda muhim rol o‘ynaydi.

3.2.1-lemma. υ oila X fazoning cheklikomponentali qoplamasi bo‘lsin. U holda

$$\exp_\beta\upsilon=\left\{O\left\langle U_1,\dots,U_n\right\rangle : U_i\in\upsilon,\ i=1,\dots,n;\ n\in\mathbb{N}\right\}$$

oila $\exp_\beta X$ fazoning cheklikomponentali qoplamasi bo‘ladi.

Quyidagi natija dissertatsiyaning asosiy yutuqlaridan biridir.

3.2.2-teorema. X Tixonov fazosi uchun $\exp_\beta X$ giperfazo superparakompaktli fazo bo‘lishi uchun X ning superparakompaktli fazo bo‘lishi zarur va yetarli.

$f:(X,\tau_X)\to(Y,\tau_Y)$ uzluksiz akslantirish va $O\in\tau_Y$ uchun $f^{-1}(O)$ proobraz (O ustida) trubka deb ataladi. $f(x)=f(x')$ bo‘ladigan turlicha x , $x'\in X$ nuqtalar juftidan hech bo‘lmaganda bittasi ikkinchisini o‘z ichiga olmaydigan X da ochiq atrofga ega bo‘lsa, $f:X\to Y$ uzluksiz akslantirish T_0 - akslantirish deyilishini eslatamiz. Agar har bir nuqta $x\in X$ va X da yopiq, x ni o‘z ichiga olmaydigan har qanday F to‘plam uchun $f(x)$ ning O ochiq atrofi mavjud bo‘lib, $\{x\}$ va F to‘plamlar $f^{-1}(O)$ trubkada funksional ajralgan bo‘lsa, $f:X\to Y$ to‘la regulyar akslantirish deyiladi. To‘la regulyar T_0 -akslantirish Tixonov akslantirishi deyiladi.

Ravshanki, har bir X Tixonov fazosini Y Tixonov fazosiga o‘tkazuvchi $f:X\to Y$ uzluksiz akslantirish Tixonov akslantirishi bo‘ladi. Har bir X Tixonov fazosi uchun $\exp_\beta X$ fazo ham Vyetoris topologiyasiga ko‘ra Tixonov fazosi bo‘lgani uchun $\exp_\beta f:\exp_\beta X\to\exp_\beta Y$ akslantirish Tixonov akslantirishi bo‘ladi.

Agar $f:X\to Y$ uzluksiz yopiq akslantirishda har bir $y\in Y$ nuqtaning $f^{-1}(y)$ proobrazi kompakt bo‘lsa, u holda $f:X\to Y$ akslantirish kompakt deyiladi. $f:X\to Y$ uzluksiz akslantirish kompakt bo‘lishi uchun har bir $y\in Y$ nuqta va $f^{-1}(y)$ ni qoplaydigan X da ochiq to‘plamlardan tuzilgan har qanday ω qoplama uchun Y da y ning shunday O ochiq atrofi topilib, $f^{-1}(O)$ trubkani ω oilaning chekli qism oilalar bilan qoplash mumkin bo‘lishi zarur va yetarli ekanligini ko‘rish qiyin emas.

$f:X\to Y$ uzluksiz akslantirishni $bf:b_fX\to Y$ kompakt akslantirishga davom ettirish mumkin bo‘lib, X fazo b_fX fazoda zich bo‘lsa, u holda bf akslantirish f akslantirishning kompaktifikatsiyasi deyiladi. f akslantirishning barcha kompaktifikatsiyalari to‘plamida qisman tartiblanganlik kiritish mumkin: agar f akslantirishning $b_1f:b_{1f}X\to Y$ va $b_2f:b_{2f}X\to Y$ kompaktifikatsiyalar uchun $b_{2f}X$ ni $b_{1f}X$ ga o‘tkazuvchi tabiiy akslantirish mavjud bo‘lsa, u holda $b_1f\le b_2f$ kabi yoziladi. B. A. Pasinkov har bir $f:X\to Y$ Tixonov akslantirishi uchun βf bilan belgilanadigan maksimal $g:Z\to Y$ kompaktifikatsiya mavjudligini ko‘rsatdi va maksimal kompaktifikatsiya Z fazo β_fX orqali belgilanadi. f Tixonov akslantirishning βf maksimal kompaktifikatsiyasi gomeomorfizmgacha aniqlik bilan yagona bo‘ladi.

3.2.1-eslatma. b_1f , b_2f , βf akslantirishlar f akslantirishning kompaktifikatsiyalari ekanligini eslatib o‘tamiz. $b_{1f}X$, $b_{2f}X$, β_fX fazolar esa X fazoning qandaydir kengaytmalari bo‘lib, X fazoning kompaktifikatsiyasi bo‘lishi shart emas. Bunda $f:X\to Y$ (Tixonov) akslantirishining $\beta f:\beta_fX\to Y$

maksimal kompaktifikatsiyasini, uning $\beta f:\beta X\to\beta Y$ kengaytmasi bilan almashtirib yubormaslik kerak.

Biz tabiiy ravishda paydo bo‘lgan quyidagi tushunchani kiritdik.

3.2.1-ta’rif. Tixonov $f:X\to Y$ akslantirishi va uning $bf:b_f X\to Y$ kompaktifikatsiyasi qaraylik. Agar har bir $y\in Y$ nuqta va X fazoda har qanday kesishmaydigan ochiq U_1 va U_2 to‘plamlar uchun y nuqtaning shunday $O\subset Y$ ochiq atrofi topilib,

$$\left(O_{b_f X}(U_1\cup U_2)\right)\cap(bf)^{-1}(O)=\left(O_{b_f X}(U_1)\cup O_{b_f X}(U_2)\right)\cap(bf)^{-1}(O)$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda $bf:b_f X\to Y$ kompaktifikatsiya $f:X\to Y$ akslantirishning mukammal kompaktifikatsiya deyiladi.

Quyidagi tasdiq dissertatsiyaning asosiy yutuqlaridan biridir.

3.2.4-teorema. $\exp_\beta f:\exp_\beta X\to\exp_\beta Y$ Tixonov akslantirishi faqat va faqat $f:X\to Y$ superparakompaktli akslantirish bo‘lsagina superparakompaktli akslantirish bo‘ladi.

3.2.2-natija. $\exp_\beta$ funktor superparakompaktli fazolar va ularning superparakompaktli akslantirishlar kategoriyasiga ko‘tariladi.

Quyidagi alomat Π-to‘la fazolarni tadqiq etishda muhim rol o‘ynaydi.

3.3.1-teorema (Buhagiar D., Miwa T.). X Tixonov fazosi Π -to‘la fazo bo‘lishi uchun uning ixtiyoriy bX kompakt kengaytmasini olganda ham, har bir $x\in bX\setminus X$ nuqta uchun X fazoning $Kp\omega=1$ bo‘ladigan shunday ω ochiq qoplamasi topilib, bu qoplama x nuqtani bX dan ajratishi (ya’ni, $x\notin\bigcup[\omega]_{bX}$ bo‘lishi) zarur va yetarli.

3.3.1-lemma. X Tixonov fazoning υ ochiq qoplamasini qaraylik, $Kp\upsilon=1$ bo‘lsin. U holda

$$\exp_\beta\upsilon=\left\{O\langle U_1,\ldots,U_n\rangle:U_i\in\upsilon,\ i=1,\ldots,n;\ n\in\mathbb{N}\right\}$$

oila $\exp_\beta X$ fazoning ochiq qoplamasi bo‘lib, $Kp\ \exp_\beta\upsilon=1$ bo‘ladi.

Quyidagi tasdiq dissertatsiyaning asosiy natijalaridan biridir.

3.3.2-Teorema. X Tixonov fazosi uchun uning $\exp_\beta X$ giperfazosi Π-to‘la bo‘lishi uchun X fazoning Π-to‘la bo‘lishi zarur va yetarli.

Agar har bir $x\in\beta_f X\setminus X$ nuqtani $\beta_f X$ dan ajratadigan X ning o‘zaro kesishmaydigan ochiq-yopiq qoplamasi mavjud bo‘lsa, $f:X\to Y$ Tixonov akslantirish Π-to‘la deyiladi.

Quyidagi natija 3.1.1 teoremaning akslantirishlar uchun versiyasidir.

3.3.4-teorema. $f:X\to Y$ –Tixonov akslantirishi bo‘lsin. U holda

$$\exp_\beta\beta f\ :\exp_\beta\beta_f X\to\exp_\beta Y$$

akslantirish $\exp_\beta f:\exp_\beta X\to\exp_\beta Y$ akslantirishning mukammal akslantirishi bo‘ladi.

Quyidagi tasdiq asosiy natijalardan biridir.

3.3.5-teorema. X va Y tixonov fazolari $\exp_\beta f:\exp_\beta X\to\exp_\beta Y$ akslantirish Π-to‘la bo‘lishi uchun $f:X\to Y$ akslantirishning Π-to‘la bo‘lishi zarur va yetarli.

3.3.2-natija. $\exp_\beta$ funktor Π -to‘la fazolar va ularning Π -to‘la akslantirishlari kategoriyasiga ko‘tariladi.

XULOSA

Dissertatsiyaning birinchi bobida uning asosiy natijalarini taqdim etish uchun foydalaniladigan tushunchalar kiritilgan. To‘plamlar nazariyasi va umumiy topologiyadan ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida topologik fazolarning kardinal funksiyalarining ta’riflari qisqaroq va tushunarli qilib berilgan. Kompakt Xausdorf fazolarida kardinal funksiyalarning qiymatlari bo‘yicha asosiy natijalar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Ikkinchi paragrafda dissertatsiyaning asosiy o‘rganish obyektlari – kompaktli tipidagi fazolar – Π-to‘la, shuningdek, superparakompaktli fazolar tushunchalari bayon etilgan. Bu boradagi asosiy yutuqlar qayd etilgan.

Ikkinchi bobda fazolarning maxsus sinflari uchun kardinal invariantlarning ba’zi tengliklari o‘rnatiladi, shuningdek, superparakompaktli p -fazolarning absolyutlari ajratib ko‘rsatilgan. Xususan, har qanday lokal bog‘lamli Xausdorf K -komponentli fazo va uning har qanday nuqtasi uchun fazoning to‘rli vazni va vazni, fazoning sust zichligi va zichligi, nuqtaning fazodagi psevdoxarakteri va xarakteri teng ekanligi o‘rnatilgan. Fazoning to‘rli vaznining, vaznining, psevdovaznining tengliklari, shuningdek, (O-C)-kompakt sust Π-to‘la fazodagi har qanday yopiq to‘plam uchun psevdoxarakter, xarakterning tengliklari olingan. Xuddi shunday tengliklar (O-C)-chekli Π-to‘la fazo uchun ham topilgan.

Superparakompakt faqat va faqat u σ -cheklikomponentli bazaga ega bo‘lsagina metrikalashishi ko‘rsatilgan.

Sanoqli bazaga ega superparakompaktli p -fazoning absolyuti faqat va faqat sanoqli cheklikomponentali qoplamalar sistemasiga yoyiladigan superfinal sanoqli σ -cheklikomponentali π -bazaga ega p-fazolargina bo‘la olishi isbotlangan.

Uchinchi bobda ushbu ajoyib natija olindi: berilgan fazoning cheklikomponentali qoplamasi elementlari orqali indutsirlangan giperfazo qoplamasi giperfazoning cheklikomponentali qoplamasi bo‘ladi. Bu xossadan foydalanib Tixonov fazosining kompakt qismto‘plamlaridan tuzilgan giperfazosi faqat va faqat berilgan Tixonov fazosi superparakompakt bo‘lsagina superparakompakt bo‘lishi o‘rnatildi.

Yana bir qiziqarli yutuq shundan iboratki, fazoning 1-karrali qoplamasi elementlari tomonidan indutsirlangan giperfazo qoplamasi giperfazoning 1-karrali qoplamasi bo‘ladi. Ushbu xossani qo‘llagan holda, Tixonov fazosining kompakt qismto‘plamlaridan tuzilgan giperfazo faqat va faqat berilgan Tixonov fazosi Π-to‘la bo‘lsagina Π-to‘la bo‘lishi isbotlandi.

Tixonov akslantirishning mukammal kompaktifikatsiya tushunchasi kiritilgan.

Mazkur ta’rifni qo‘llab, quyidagi muhim natijalar olindi:

$\exp_\beta f : \exp_\beta X \to \exp_\beta Y$ akslantirish Tixonov akslantirishi bo‘lib, faqat va faqat $f : X \to Y$ akslantirish superparakompakt bo‘lsagina $\exp_\beta f : \exp_\beta X \to \exp_\beta Y$ akslantirish superparakompakt bo‘ladi;

$\exp_\beta f : \exp_\beta X \to \exp_\beta Y$ akslantirish faqat va faqat $f : X \to Y$ akslantirish Π-to‘la bo‘lsagina Π-to‘la bo‘ladi.

$\exp_\beta$ funktori superparakompakt fazolar va ularning superparakompakt akslantirishlari kategoriyasiga, shuningdek Π-to‘la fazolar va ularning Π-to‘la akslantirishlari kategoriyasiga ko‘tariladi, degan xulosa bayon etildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ ИМ. В.И.РОМАНОВСКОГО, ТАШКЕНТСКИЙ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУМАЕВ ДАВРОН ИЛХОМОВИЧ

ПРОСТРАНСТВА КОМПАКТНОГО ТИПА И ИХ ГИПЕРПРОСТРАНСТВА

01.01.04 – Геометрия и топология

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

ТАШКЕНТ – 2024

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2019.3.PhD/FM399.

Диссертация выполнена в Институт Математики им. В.И.Романовского и Ташкентском архитектурно-строительном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, английский, русский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (http://www.ziyonet.uz).

Научный руководитель	**Заитов Адилбек Атаханович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Бешимов Рузиназар Бебутович** доктор физико-математических наук, доцент
	Эшкобилова Дилрабо Турахановна доктор философии по физико-математическим наукам (PhD)
Ведущая организация:	**Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами**

Защита диссертации состоится «03» 01 2025 года в 15:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 при Национальном университете Узбекистана имена Мирзо Улугбека. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99878)227-12-24, факс: (+99878) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №179). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99878) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «20» 12 2024 года.
(протокол рассылки № 2 от «20» 12 2024 года).

А. С. Садуллаев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д. ф.-м. н., академик

Р. М. Жураев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д. ф. ф.-м. н. (PhD)

Р. Б. Бешимов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д. ф.-м. н., доцент

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ВВЕДЕНИЕ
(аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире наблюдается очередная волна интенсивных исследований по теории топологических пространств. Это явление адекватно отражается учёными нашей республики. Появляются работы по теории функторов (в частности, по функтору гиперпространства) как зарубежных, так и отечественных исследователей. Последние исследовательские работы показывают, что вопрос о метризации топологических пространств до сих пор является привлекательной задачей. Исходя из этого, можно сделать вывод, что исследование по пространствам типа компактности и их гиперпространств является целенаправленным научным исследованием.

Интенсивное развитие научно-технического прогресса в мире требует разработки современной математике новых направлений фундаментальных исследований, в частности, теории топологических пространств и внедрения полученных результатов в практику. Многие задачи как прикладной, так и чистой математики, возникающие из потребностей экономики и промышленности, сводятся к задачам, более широких топологических пространств чем, класс компактных хаусдорфовых пространств, в частности, суперпаракомпактных и П-полных пространств. При этом, возникающим выборкам соответствуют элементы гиперпространства. Поэтому результаты, полученные по суперпаракомпактным и П-полным пространствам и их гиперпространствам, имеют и теоретическую, и практическую значимость и считаются одним из важнейших направлений исследования современной математики.

В нашей стране усиленное внимание уделено актуальным направлениям в области естественных и точных наук, в частности, особое внимание уделяется приложению методов и результатов в задачах общей топологии, теории функторов. Основными задачами и направлениями деятельности математической науки являются проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям «Функциональный анализ, геометрия и топология»[1]. Развитие исследование по типам компактности (суперпаракомпактность, П-полнота, и другие), теории функторов, в частности, функтора гиперпространств топологических пространствах, играет важную роль в обеспечении реализации данного постановления.

Исследование данной диссертации в определенной степени служит решению задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” и постановлениями Президента

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года №292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан».

Республики Узбекистан ПП-2789 от 17 февраля 2017 года "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности", ПП-2909 от 20 апреля 2017 года "О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования", и ПП-3682 от 27 апреля 2018 года "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов" и ПП-4358 от 17 июня 2019 года "О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки востребованных квалифицированных кадров и развитию научного потенциала в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека в 2019-2023 годах", № УП-5847 от 8 октября 2019 года "Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года", а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной области деятельности.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV «Математика, механика и информатика».

Степень изученности проблемы.

